

Qonunlar ijrosi...



Xalq deputatlari viloyat Kengashidagi partiya deputatlik guruhi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi hamda "Reklama to'g'risida"gi Qonunlarning ijrosi Termiz shahrida o'rganildi.

Unda, shahardagi savdo rastalariga ilingan reklamalarning holati bilan tanishishdi. Afsuski, ommaviy jamoat joylardagi reklama vositalarida xato kamchiliklar yo'q emas. Mazkur Qonun buzilishi holatlari bo'yicha tadbirkorlar ogohlantirilib, bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.